

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

**FARG'ONA VODIYSI QIRG'IZLARI MADANIYATIDA URF-  
ODAT VA MAROSIMLAR ASOSIDA MILLIY IDENTIKLIKNI  
SAQLASH TENDENSIYALARI**

*Inatullayev Baxromjon Boqijonovich*

*Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasi dotsenti*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida milliy identiklikni saqlab qolish omili sifatida ijtimoiy hayotda qo'llaniladigan milliy urf-odatlar, marosimlar o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy identiklik, madaniy diffuziya, etnomadaniyat, to'y marosimi, aza marosimi, sunnat to'yi, hunarmandchilik, tushov yechdi marosimi, o'tov

**ТЕНДЕНЦИИ СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ИДЕНТИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБЫЧАЕВ И ЦЕРЕМОНИИ В  
КУЛЬТУРЕ КЫРГЫЗСКОГО НАРОДА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ**

*Инатуллаев Баҳромжон Бакиджонович*

*Доцент кафедры искусствоведения Наманганского  
государственного университета*

**Аннотация:** В данной статье исследуются национальные обычаи и обряды, используемые в общественной жизни как фактор сохранения национальной идентичности в культуре кыргызов Ферганской долины.

**Ключевые слова:** национальная идентичность, культурная диффузия, этнокультура, свадебная церемония, траурная церемония, свадьба с обрезанием, ремесла, церемония взлета, отов.

**TENDENCIES TO PRESERVE NATIONAL IDENTITY BASED  
ON CUSTOMS AND CEREMONIES IN THE CULTURE OF THE**

---

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**KYRGYZ PEOPLE OF THE FERGANA VALLEY**

---

*Inatullayev Bakhromjon Bakijonovich*

*Inatullayev Bakhromjon Bakijonovich*

*Namangan State University Associate Professor of the Department of Art  
Studies*

**Abstract:** In this article, the national customs and ceremonies used in social life as a factor of preserving national identity in the culture of the Kyrgyz of the Ferghana Valley are studied.

**Key words:** national identity, cultural diffusion, ethnoculture, wedding ceremony, mourning ceremony, circumcision wedding, crafts, ceremony of taking off, otov

Milliy o‘zlikni anglash - bu “millatni o‘ziga xos an'analar, madaniyat va tillar bilan ifodalangan yaxlit bir butunlik” tuyg‘usi. Milliy o‘ziga xoslik, uning qonuniy fuqarolik maqomidan qat'i nazar, shaxsning ma'lum bir etnik guruh bilan millat haqida baham ko‘radigan sub'ektiv tuyg‘usini anglatishi mumkin. Milliy o‘ziga xoslik psixologik jihatdan “farqni anglash”, “biz va ularni” his qilish va anglash sifatida qaraladi va dunyo tadqiqotchilari, ushbu muammoga alohida qiziqish bildirib, buni bir qator holatlar bilan izohlash mumkin. O‘zlikni anglash muammosi o‘zining noaniq va qarama-qarshi tabiat bilan globallashuv sharoitida butunlay boshqacha ma'no kasb etadi. O‘ziga xoslik tushunchasini talqin qilish usullari ham o‘zgardi.

Ayrim manbalarda qizga to‘lanadigan qalin qiymati baland bo‘lgani uchun qiz o‘g‘irlangan degan fikr yuradi. Ammo, qirg‘iz odatiga ko‘ra o‘g‘irlangan qiz xonadoniga habar berilgan, kelin tomon bu ish ularga nisbatan bexurmatlik ekanini davo qilib, qizni qaytarib olib ketishini bildiradi. To‘yga qadar, musulmonlik odatiga ko‘ra yigit va qiz yaqinlik qilish mumkin emas, bexurmatlik sanaladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Yigit urug‘i esa uzr so‘rab, xurmat ko‘rsatib, dasturxon ustida barcha muammoni hal qilishga harakat qiladi, qirg‘iz odatiga ko‘ra bir dasturxonidan tuz, non totish xurmat sanaladi. Lozim bo‘lganda qiz o‘z ihtiyyori bilan qochgani ma'lum qiladi, so‘ng har ikki taraf, qiz (kaliq kesip) qalini kelishiladi. Bu marosimda har ikki tomoni moddiy imkoniyati e'tiborga olinadi. Ikkinchisi tur to‘y marosimi ham bo‘lib, an'anaviy sovchilik asosida qiz uzatiladi, ayollar avval qizning xonadonida “qiz ko‘rish” to‘yi (ziyofat) uyushtiradi.

Barcha turkiy millatlarda bo‘lgani kabi qirg‘izlarda ham mehmon do‘slik ko‘hna ildiziga ega bo‘lib, o‘lmas an'anaga aylangan va hozirda ham saqlanib qolgan. Qirg‘iz oilalari odatda bir necha avloddan iborat ko‘p bolali oilalardir. Keksalarni e'zozlash, ardoqlash qirg‘iz xalqining yana bir asosiy an'anasiidir.

Ushbu muammoni o‘rganish orqali, milliy o‘zlikni shakllantirish va o‘zgartirishga ta’sir qiluvchi zamonaviy sivilizasiya inqirozining xususiyatlarini aniqlash mumkin. Madaniy inqiroz jamiyatda shaxsni aniqlash uchun asos bo‘lgan qadriyatlarni qayta baholashni tezlashtirdi.

Jumladan, fotiha va to‘y marosimlari o‘tkaziladi. Musulmon odatiga ko‘ra, o‘g‘il bolani “qo‘lini halol”lash, majburiyat sanaladi, chukron oshi yoki synnet toyi o‘tkazish oila ximmati bo‘lib, moddiy imkoniyatidan kelib chiqib, ado etiladi.

Madaniy diffuziya jarayonida aynan o‘xhash hodisalarda o‘zlashtirish yoki qo‘shilish hodisasi o‘zaro yaqin bo‘lgan xalq bilan ro‘y beradigan qo‘shilib ketish, integrasiya hodisasi ro‘y beradi. Ammo, madaniy hodisa jarayoni, madaniy jihatdan ustuvor bo‘lgan millat, xalqning madaniyatini o‘zlashtirish, tobe bo‘lishga nisbatan aytildi. Madaniy diffuziya jarayoni sosial-iqtisodiy taraqqiyot va madaniy aloqaning yaqinligi oqibatida sodir bo‘ladi.

Aza marosimi qirg‘izlarda “Suuk maraka jana seøk koyuu azemi”, ta’ziya uch kun davomida marxumni tunatib turiladi, sababi, uzoqdagi tug‘ishganlari yetib kelib, marhum bilan xayr lashishi, diydor qiyomatga qolmasligi kerak. Marhum uchun oq o‘tov tiklib, marhum shu yerdan so‘ngi manzilga kuzatiladi. O‘zbeklardan farqli tarzda marxum xonadonida taom pishiriladi, ta’ziya kuniga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

jonlik so'yib, suyuq-quyuq ovqat tayyorlanib, ta'ziyaga kelganlarni to'ydirib kuzatiladi.

Qirq oshi qirg'izcha "Kara shorpo" marosimi o'tkaziladi, bir yildan so'ng yil "Kudayi" oshi berilib, marhumni yod etiladi. Har bir marosimni o'tkazishga bolalarni yoshligidan jalg qilinadi, chunki bevosita ishtirok etishi, ularda milliy urf-odatlarni mohiyatini tushunishga olib keladi. Biroq, bu turdag'i marosimlar din bilan bog'liq bo'lib, barcha musulmon xalqida deyarli bir-biridan farq qilmagan xolda bajariladi.

Identiklikni zarurati tugashi bilan shaxsni shakllantirish nihoyat boshlanadi. Bu bolalik identiklarni tanlab inkor etish va o'zaro assimilyasiya qilish va ularni yangi konfigurasiyaga singdirishdan kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida jamiyatning yosh shaxsni identi-fikasiyalash jarayoniga bog'liq bo'lib, o'z-o'zidan qabul qilinadi.

"Qirg'izlarning umumiy afsonaviy otasi, sanjira (arabcha: shjr̄t shazhara) ma'lumotlariga ko'ra, Dolonbiy hisoblanadi. Uning uch o'g'li oq oul (o'ng qanot), kuu uul (chap qanot) va qizil o'l (ichkilik guruhi) bo'lgan.). Otuz uul qabila ittifoqiga oq uul va kuu uul avlodlari kirgan, qizil o'l avlodlari on uul ittifoqini tuzdilar. Turkiy tili elat, qabila va millatlarning tarixiy taraqqiyotini belgilash, o'tmishdagi urug' va qabilalar ittifoqi hamda ularning til xususiyatini o'rghanishda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari muhim ahamiyat kasb etadi". [1.-B.64.]

Mazkur, "Devonu lug'otit turk" asari etno(lug'at)lingivistik jihat eng ko'hna manba sifatida turkiy tili millatlarni etnomadaniyati, etnik mansubligi va o'ziga xos(identik)likni asosi bo'lgan, milliy urf-odat, an'ana va marosimlarni yashovchanligini ta'minlaydi.

Qirg'iz xalqining milliy an'ana va urf-odatlari o'zida millat etnogeziga doir ko'hna sirlarni yashirgan hamda asrlar davomida shakllangan. Qirg'iz etnik guruhi nafaqat yurtimizda balki Markaziy Osiyoning eng qadimiy etnik guruhlardan biridir. Qirg'izlar, o'ziga xos etnomadaniyati, etnik mansublik va milliy o'ziga xos(identik)lik qadim o'tmishdan shakllanib, rivojlangan. Urum va

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

urf-odatlarga rioya qilish, kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, azaldan har bir insonning burchi bo'lib kelgan.

Ayrim urf-odat va marosimlar, aynan ko'chmanchi chorvador qirg'izlarga xos tushov (tushov chehti) yechdi marosimidir, keksa yoshli oqsaqol, oyog'iga tushov solingan bolani ko'tarib, duo va tilak bildirib, so'ng yechim qo'yib yuboradi. Yoki o'g'il bolani otga (at miny়) o'tqazish, bu an'ana farzandga bobo yoki otasi tomonidan o'rgatiladi.

Bu an'ana o'g'il farzandiga ot minish, otni boshqarish va chavondozlikni o'rgatishdan maqsad, qirg'iz xalqining urf-odat va an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalashdir. Mazkur, ko'hna an'ana, avlodlar majburiyat ssanalib, o'zbekning qipchoq urug'ida ham bor, chunki etnik va til jihatidan ham qipchoqlar, qirg'izlarga yaqin turadi.

Bundan tashqari, o'tov uchun ashyni shumtol shohlaridan saralab, tanlash ishlov berish, o'tov shanarag'ini tiklash, egar va taqa yasash, taqa qoqish kabi yumishlarni erkak kishining o'zi bajarishi, majburiyat hisoblanadi. Identiklikning konsepsiysi mashhur ingliz sosiologi E. Giddens ishlab chiqqan va u mazkur hodisani boshqacha talqinni taklif qilgan. U, milliy o'zlikni ikki qutb deb ta'kidlaydi. Bir tomondan - mutlaq moslashuvchanlik, ma'lum bir prinsiplarning yetishmasligi, boshqa tomondan-o'z-o'zini ommadan izolyasiya qilishdir.

“...bizning o'ziga xosligimiz bizning haqiqiy tariximizning o'zgaruvchan farqlari va o'zgarishlari ostida “xalq, millat” sifatida barqaror, o'zgarmas va doimiy murojaatlar va semantik ramkalar beradigan umumiylar tarixiy tajribalarimiz hamda va umumiylar madaniy birlikni aks ettiradi”.[2.-C. 22.]

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi aholisi hunarmandligi bilan ajralib turadi: Chust, Asaka, Marg'ilon va Qo'qon hunarmandlik maktabi vakillari ishlab chiqargan mahsulotlar nafaqat mintaqada, balki xorijiy sayyoohlarni ham e'tiboriga tushgan. Hunarmandchilikni ommalashgan to'quvchilik sohasida rivojlangan tadbirkorlik nafaqat o'zbeklar, balki vodiylar qirg'izlari o'rtaida ham keng rivojlangan.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Vodiy qirg'izlari o'rtaida to'quvchilik, kashtachilik va zargarlik keng tarqalgan san'at va hunarmandchilik turi hisoblanadi. Hunarmandlar milliy dizayn namunasidan foydalangan holda rang-barang va naqshli bezaklar bilan bezatilgan kiyim-kechak, uy jihizi va to'qimachilik buyumlarini yaratadilar.

Jumladan, qirg'izlar terini qayta ishlash va charmga ishlov berish bo'yicha o'ziga xos an'analariga ega bo'lib, charm oyoq kiyim (payabzal) tikish, charmdo'zlik hamda egar-jabdug' yasash, bezash uchun an'anaviy naqsh va bezaklar ishlatiladi. Mazkur amaliy san'atning bu turlari nafaqat qirg'iz xalqining madaniy boyligi va an'analarini aks ettiribgina qolmay, balki, Farg'ona vodiysi mintaqasi uchun muhim daromad manbai hamda sanoat rivojiga hissa qo'shamdi. "Qirg'izistonda ushbu muammo ayrim tadqiqotichilarni e'tiborini torgan masala, Farg'ona vodiysida yashovchi turli etnik guruhlar, jumladan, qirg'izlarning tarixiy va ijtimoiy-madaniy munosabatlariga bag'ishlangan. U, uzoq vaqt bir mintaqada yashagan, tili, dini va ijtimoiy turmush tarzi yaqin bo'lgan o'zbek, tojik, uyg'ur va qoraqalpoq kabi etnik guruhlar ta'sirida qirg'izlarning milliy o'ziga xosligidagi o'zgarishlarga yuz tutgan fikrga kelgan".[3.-C.21.]

Milliy o'ziga xoslik, etnomadaniyat va etnik mansublikni uzlusizlik, barqarorlik, o'z etnik va milliyligini aniqlash hamda anglash tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, sifat jihatidan aniqlik bilan tavsiflanadi. Uning mohiyatini shaxsiy chegarasidan tashqariga chiqishi va ijtimoiy tizimning o'z -o'zini anglatishiga ta'sir ko'rsatadi.

Milliy o'ziga xoslik - bu ijtimoiy o'zaro ta'sir va ijtimoiy muloqotni tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan kategoriya. Bu atama nihoyat XX asr oxirida ijtimoiy-falsafada qabul qilingan tushunchadir.

Milliy o'zlik va milliy o'ziga xoslikni anglash murakkab, tabiatan ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ta'riflanadi. Milliy o'zlik va etnik mansublikni anglashning psixologik, madaniy, tarixiy, hududiy va siyosiy o'lchovlarini tahlil qilish orqali chuqr ildiz otgan ramziy makon sifatida konsepsiyalash mumkin.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Etnik makonda etnik guruhlar o‘zini “begona”lardan ajratib turadigan va o‘z etnomadaniyati, axloqiy va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, madaniy me’yorlar va ideallar tizimini yaratishga qodir bo‘lgan milliy etnik guruhga aylanadi. Milliy o‘zlikni anglash hodisasi mavjud, hayotiy hodisa sifatida turli ta’sir va o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Manbalarda qayd etishicha, milliy o‘ziga xoslikning elementlarining o‘ziga xos birligi, ma'lum bir millatga mansub bo‘lganlar tomonidan baham ko‘rilgan “muhim atributlar”dir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк, I том, Тошкент, 1960.
2. Кожевникова Ю.А. Кризис национальной идентичности в глобализирующемся мире: автореф. дис. ... канд. филос. наук: 09.00.11 /- Москва., 2012.
3. Абдуманапов Р.А. Культурно-историческая основа кыргызского племенного образования кангды // Тюркологический сборник ..Москва: Восточная литература, 2016.
4. КАДИРОВА Х. МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИКГА ИЖТИМОИЙЛАШУВ, МАДАНИЙ, ТАРИХИЙ МЕРОС ВА ТИЛНИНГ ТАЪСИР ЭТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ //UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324.
5. Kh Kadirova. PRESERVATION OF LANGUAGE, HISTORY AND NATIONAL IDENTITY IN THE AGE OF GLOBALISM //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – Pp. 1363-1367
6. Kadirova Yaqitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>